

# **Chegirmalar bilan sizni xursand qilishda davom etamiz**

**2025 22 Yanvar**

23-yanvar kuni "Yorqin payshanba" aksiyasi doirasida Toshkentdan Olmaota, Bishkek, Milan, Moskva, Mumbai, Parij va ortga qaytuvchi aviaqatnovlar tariflariga 20% gacha chegirma e'lon qilamiz.

Aksiya faqat bir kun - 00:00 dan 23:59 gacha amal qiladi. Aviachiptalarni [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) saytidan, ilovadan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin. Yo'lovchi va yuk tashish tarifiga qo'shimcha ravishda turli soliqlar, yig'implar va qo'shimcha to'lovlar belgilanadi, ularga 20% gacha chegirma qo'llanilmaydi.

Aksiya shartlari:

Aksiya muddati: 2025-yil 23-yanvar soat 00:00 dan 23:59 gacha.

Chegirma faqat Uzbekistan Airways aviakompaniyasining o'z reyslari uchun amal qiladi. Bu chegirma «Uzbekistan Helicopters» (HY1001-1100) va «Silk Avia» reyslariga tatbiq etilmaydi.

Taqdim etiladigan chegirma miqdori:

kattalar uchun tarifdan – 20% gacha;

2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda – 20% gacha;  
chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun amal qilmaydi;

Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig'implarga nisbatan qo'llanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;

Ilgari sotib olingan aviachiptalar 16.01.2025da qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qo'llanilmaydi;

Chegirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta chiqarilgan sanada (ya'ni chegirma qo'llanilgan holda) amalga oshiriladi;

Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qo'llanilgan tarif qoidalari bilan belgilanadi, aviachiptalarni e'lon qilingan berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);

Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;

Chegirma e'lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun faqat Toshkentdan Olmaota, Bishkek, Milan, Moskva, Mumbai, Parij va ortga qaytuvchi to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishlar uchun taqdim etiladi. CodeShare aviaqatnovlarida va Tijorat shartnomalari (SPA) ostida e'lon qilingan tariflar uchun amal qilmaydi.